

## 9-aprel - Amir Temur tavallud topgan kun

Kimki o'zbek nomini, o'zbek millatining kuch-  
qudratini, adolatparvarligini, cheksiz  
imkoniyatlarini, uning umumbashariyat  
rivojiga qo'shgan hissasini, shu asosda  
kelajakka ishonchini anglamoqchi bo'lsa,  
Amir Temur siymosini eslashi kerak!

Islom KARIMOV



Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:14 (67075)  
2016-yil  
4-aprel

# Tong yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN - 2010-6092

O'QUV QAYDA BO'LSA, ULUG'LIK BO'LAR,  
BIILM QAYDA BO'LSA, BUYUKLIK BO'LAR.







**Muhammad ALI,  
O'zbekiston xalq yozuvchisi**

Amir Temur qurish, yaratish mentaliteti bo'lgan xalqning farzandi, tabiatan bunyodkor bo'lib tug'ilgan monandi yo'q zot edi.

...«Amir etdimki, deb yozadi Amir Temur «Tuzuklar»da. Katta-kichik har bir shahar, har bir qishloqda masjid, madrasa va xonaqohlar bino qilsunlar, faqir-u miskinlarga langarxona (musofirxona) solsunlar, kasallar uchun shifoxona qurdirsunlar va ularda ishlash uchun tabiblar tayinlasunlar. Har bir shaharda durul-amorat (hukmdor saroyi) va durul-adolat (adolat saroyi) qursunlar...»

## AMIR TEMUR – BUNYODKOR

### Sohibqiron hikmatlaridan namunalar

- \* Bir ishga kirishishdan oldin chiqishni o'ylab qo'y.
- \* Biror ishni bajarishni o'ylasam butun zehnim, vujudim bilan bog'lanib, bitirmagunimcha undan qo'limni tortmadum. Har neki desam, unga o'zim amal qildum.
- \* Yaxshilarga yaxshilik qildim, yomonlarini esa o'z yomonliklariga tobshurdum.
- \* Ochiq yuzlilik, rahm-shafqat bilan xalqni o'zimga rom qildim. Adolat bilan ish yuritib, jabr-zulmdan uzoqroq bo'lishga intildim.

Amir Temur jonboz bunyodkor edi, u ajoyib bog'-rog'li muhtasham inshootlar barpo etdi, shahar va qishloqlarni tikladi. Sug'orish tizimlari barpo qildi va ta'mirladi, rasmiy tarix ta'biriga ko'ra, u ekin ekishga yaroqli bir qarich yerni ham bekor qo'ymasdi.

V. V. BARTOLD

Bunyodkorlik Sohibqiron davrida davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan edi, deyish mumkin. Amir Temur faqat o'z mamlakatidagina emas, balki boshqa yurtlarda ham bunyodkorlik ishlarini amalga oshirgani buning dalilidir. Dastavval saltanat poytaxti qilib belgilangan Samarqandni dunyoning eng obod shahariga aylantirdi, ulug'vorligini ko'rsatish uchun, atrofida Damashq, Bag'dod, Misr, Sheroz, Sultoniya kabi dunyoning mashhur shaharlari nomlari bilan atalgan, bog'-rog'larga ko'milgan qishloqlar barpo qildirdi.

Mamlakatda yo'llar kengaytirildi. Ko'priklar solindi, rabotlar tiklandi, bozorlar orastalandi, binolar qad ko'tardi, xiyobonlar barpo etildi, bog'lar yashnadi. Bu bog'lar haqida ispan elchisi Rui Gonsales de Klavixo o'z kundaliklarida zavq-shavq bilan qalam tebratgan. Ularning ichida Gulbog', Bog'i Dilkusho, Bog'i Chinor, Bog'i Nav va boshqa bog'lar nomi bor. Samarqandda Ko'ksaroy, Amir Temur Jome masjidi, Bibixonim madrasasi, masjidi, Qusam ibn Abbas me'moriy majmui, Amir Temur maqbarasi, Shahrisabzda Dorut-tilovat majmui, muhtasham Oqsaroy, Turkiston shahridagi Xoja Ahmad Yassaviy xonaqoh maqbarasi, Toshkent yaqinida Zangiota maqbarasi, Nahri Barlos arig'i, Kobul atroflari, Farg'ona vodiysi, Murg'ob vodiysidagi yerlarga, Ozarbayjondagi Mug'on cho'llariga suv chiqarilishi, Shohruhiya, Baylaqon shaharlarining bunyod etilishi, Tabriz, Bag'dod va Gurganj shaharlarining qayta tiklanishi...

Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Sharafiddin Ali Yazdiyning: «Sohibqiron har yerdakim, imoratga qobil yer ko'rsa erdi, ul yerda, albatta, bir imorat solur erdi...», degan so'zlari zinhor mubolag'a emas.

«Amir Temur solnomasi» kitobidan olindi

## «BIZ – BUYUK YURT FARZANDLARIMIZ»

shiori ostida yurtimiz bo'lab yoshlar festivali bo'lib o'tmoqda.

Prezidentimizning «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori asosida

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati hamda qator tashkilotlar hamkorligida uyushtirilgan ushbu an'anaviy anjumanda jami 18 ta loyiha asosida ommaviy tadbirlar har bir hududda belgilangan dastur doirasida o'tkaziladi.

Ushbu festivalni o'tkazishdan maqsad, yurtimiz Mustaqilligining yigirma besh yilligini keng nishonlash, o'tgan davr mobaynida qo'lga kiritilgan yutuqlar, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini yoshlarga tushuntirishdan iborat.

Yaqinda Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida yoshlar festivali o'tkazildi. Festivalda viloyat yoshlari qatori, deputatlar, madaniyat hamda san'at namoyandalari, sportchilar, ijodkorlar, xalqaro olimpiadalarda yurtimiz dovrug'ini dunyoga yoyib kelayotgan iqtidorli o'g'il-qizlar qatnashdi.


Mehribonlik uylari va maxsus maktab-internatlar, bolalar musiqa va san'at maktablari, sport majmualari kabi maskanlarda «Kamolot» kutubxonasi, «Siz sevgan qahramonlar», «Hech kim mehr va e'tibordan chetda emas», «Nuroniyalar e'zozimizda», «Ommaviy madaniyat» va yoshlar ma'naviyati, «Biz – sog'lom turmush tarafdorimiz» singari tadbirlardan yoshlar olam-olam taassurotlar oldilar.

Jumladan, Oltinsoy tumanidagi 15-bolalar musiqa va san'at maktabida «Kamolot» kutubxonasi loyihasi doirasida bilimdonlar taniqli ijodkorlarning dastxati bitilgan kitoblar bilan taqdirlandi.

Tadbir davomida yoshlar, biz buyuk yurt farzandi ekanmiz, bu nomga munosib bo'lish uchun tinimsiz izlanishimiz, yanada ko'proq o'qib, o'rganishimiz juda muhim, deya ta'kidlashdi.

OLMOS

Yurtimizda yoshlarni maqsad yo'lida birlashtirayotgan «Biz – buyuk yurt farzandlarimiz» shiori ostidagi festival yildan-yilga kengayib bormoqda. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, Vatan ravnaqi, yurt tinchligiga yo'g'rilgan yirik loyihalar asosida ommaviy tadbirlar o'tkazilmoqda.





**2 TA OLTIN MEDAL – O'ZMU TALABALARIDA!**



**Dunyoga mashhur ne-ne alomatlarga beshik bo'lgan bu zamin bugun jahonga o'z iste'dodlarini ko'z-ko'z qilmoqda. Fan va ta'lim izchil taraqqiy etayotgan bu davrda mamlakat yoshlarining qo'lga kiritayotgan yutuqlari bilan faxrlansak arziydi. Al-Xorazmiy izdoshlarining Kiprda bo'lib o'tgan xalqaro olimpiadada faol ishtiroki so'zimiz Milliy universitetining xalqaro olimpiadada faol ishtiroki so'zimiz Bellashuvda O'zbekiston Milliy universitetining mexanika-matematika yo'nalishi 2-bosqich talabalarini Egamberganov va Shohrux Ibrohimov oltin medalni qo'lga kiritdi. Mirmuhsin Mahmudov esa maxsus diplomga sazovor bo'ldi.**

Yaqinda Kiprning Protaras shahrida matematika fani bo'yicha «SEEMOUS» o'ninchi xalqaro olimpiadasi bo'lib o'tdi. Unda yigirmadan ortiq mamlakatdan 43 Kiprda bo'lib o'tgan jamoasining 150 dan ziyod qobiliyatli talabalarini qatnashdi.

Kipr ta'lim va madaniyat vazirligi, matematika jamiyati hamda Janubi-Sharqiy Yevropa matematika jamiyati tomonidan tashkil etilgan ushbu intellektual musobaqa yurtimiz oliy o'quv yurtlarida yoshlar uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar, ta'lim sifati hamda jahon yoshlari bilan bellasha oladigan bilimli talabalarimiz borligini yana bir bor namoyon etdi.

**Xurshida SULAYMONOVA**

Buxoro viloyatining G'ijduvon tumanidagi 8-IDUMda o'tgan yilning dekabr oyidan shu kunga qadar «Navoiyni hamma va har kun o'qishi kerak!» shiori ostida qator tadbirlar belgilandi. Shu munosabat bilan ko'plab ezgu ishlar amalga oshirildi.

**NAVOIYNI O'RGANAMIZ**

**O'quvchilar 100 dan ortiq «Xamsa» asarini xarid qilishdi.**



«Xamsa»dan o'rin olgan axloqiy-tarbiyaviy, falsafiy ahamiyatga molik «Hayrat ul-abror» (Yaxshi kishilarning hayratlanishi) dostoni tarbiyaviy soatlar va ma'naviyat saboqlarida o'rganilib, tahlil qilinmoqda.

Asar yuzasidan o'quvchilar tomonidan rasm tanlovlari o'tkazildi. Kuni kecha mazkur asarni o'rganish bo'yicha badiiy kecha tashkillashtirildi. Ushbu tadbirda nafaqat o'quvchilar, balki ustozlar tomonidan tayyorlangan sahna ko'rinishlari namoyish etildi.

– Bu dostonni o'rganish orqali o'quvchilarimiz allomaning yuksak falsafiy qarashlaridan voqif bo'ldi. Qolaversa, kitobxon ma'naviyati axloqiy-tarbiyaviy g'oyalari asosida boyishiga zamin yaratildi, – deydi ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosari Yodgor Azimov.

**NURBEK**

**Maskanning 7-«D» sinf o'quvchisi Muhiddin Umedovning chizgan rasmlari hay'at a'zolari tomonidan yuksak baholanib, joriy oyda uning ijodiy ishlariga oid ko'rgazma o'tkazilishi rejalashtirildi.**

**«BOYLIKNI BOLALIKDAN ASRANG» TANLOVIGA**



**Feruz OTAQULOVA, Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanidagi 68-umumta'lim maktabining 5-«A» sinf o'quvchisi**

**Malika MUHIDDINOVA, Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanidagi 68-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi**

**TABIATNI ASRASHGA BARCHAMIZ MAS'ULMIZ**

Tabiat in'om etgan bebaho boyliklar — ichimlik suvi, tabiiy gaz va elektr-energiyadan oqilona foydalanish lozim. Bu behudaga suvni isrof qilmaslik, gaz pitalarni va elektr-energiyani kerak bo'lmagan vaqtda o'chirib qo'yish kerak, deganidir.

Uyimizda gaz bo'lmasa ovqatni nimada pishirib, choyni qanday qaynatamiz? Elektr-energiyasiz kiyimlarni qanday dazmollaymiz?!

Ularisiz ishlab chiqarish korxonalarining ishi to'xtaydi. Yoki suv bo'lmasa-chi? Axir uni hayot manbai, deiyshadi-ku. U bo'lmasa, qo'limizni, kiyimlarni, idish-tovoqlarni nimada yuvamiz? Bizga kislorod chiqarib beruvchi daraxtlar ham u bilan tirik ekani barchaga ayon. Hayvonlar, qushlar, barcha tabiat-u nabotot dunyosining suvsiz yashashi qiyin. Shunday ekan, ularni behuda isrof qilmaylik!

*Bo'lsang agar tejamkor,  
Senga bo'lar omad yor.  
Doim topasan iqbol,  
Hayotingda mazmun bor.*

**Behruz XOLBO'TAYEV, Qashqadaryo viloyati, Chiroqchi tumanidagi 13-umumta'lim maktabining 5-sinf o'quvchisi**

**TARBIYAVIY SOATDA: TEJAMKORLIK MAVZUSI**

Bugun tarbiyaviy soatda «Tejamkorlik — davr talabi» mavzusida suhbatlashdik. Ustozimiz Sanobar opa tabiiy gaz, elektr-energiya va ichimlik suvini tejashga doir xalq maqollarini yoddan aytib berishimizni va hammamiz birgalikda uni muhokama qilishimizni aytdilar.

Uyga kelib, men buviyoning bu haqda so'radim. Ular qadimda hech kim isrofgarchilikka yo'l qo'ymagan, chunki bu juda og'ir gunoh hisoblanganini aytdilar. Yana avvallari tabiiy gaz bo'lmagani uchun odamlar suv qaynatishda samovar yoki qumg'ondan foydalangan. Ovqatni esa loydan o'choq yasab, ustiga qozon o'rnatib, tagiga xas-cho'p va o'tinlarni yoqib pishirgan. Kechalari sham yoqib yoki oy shu'lasida kitob o'qigan va kashlalar tikishgan. Ichimlik suvi esa quduqlardan olingan, – dedilar.

Men buvimning gaplaridan o'zimga xulosa chiqardim. Ushbu tabiat boyliklarini ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan udumlarga va xalq maqollariga asoslangan holda ko'z qorachig'imdek asrashni, ularni kelajak avlodga yetkazishni niyat qildim.

**Iqbolxon MUHAMMEDOVA, Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi 73-umumta'lim maktabining 4-«A» sinf o'quvchisi**



## «KAMOLOT» DA KITOB DO'KONI

Bu yerda bugungi kunda 20 mingga yaqin o'zbek va jahon adabiyotining tanikli ijodkorlari qalamiga mansub mumtoz asarlar mavjud. Shuningdek, o'quvchilarga mo'ljallangan suratli ertak kitoblar, darsliklar bo'yicha qiziqarli jurnallar, «Kamolot» kutubxonasi» rukni ostida chop etilgan eng sara adabiyotlar o'rin olgan.

Kitoblar orasida ingliz tilida chop etilgan «Qor malikasi», «Tom Soyverning boshidan kechirganlari», «Pinokkioning sarguzashtlari» kabi kitoblarning borligi ingliz tilini o'rganayotganlar uchun yaxshi sovg'a bo'lishi aniq.

Muhammadjon MAHMUDOV,  
Farg'ona shahri

## BEHRUZ HIKOYA YOZYAPTI

– O'g'lim Behruz hikoya yoza boshladi, bir ko'rib berasizmi? – dedi mehmon menga uch-to'rt varaqni uzatarkan. Ularni e'tibor bilan o'qiy boshladim.

– Bolalar ijodkorlaridan kimlarning asarlarini o'qiyman, jahon adabiyotidan-chi, – dedim Behruzga hikoyalarni yana qayta varaqlar ekanman. Kutganimdek bu savolimga undan jo'yali javob ololmadim. Beixtiyor ustozlarimizning bir paytlar bizga bergan o'g'itlari yodinga tushdi.

– Ijodkor bo'laman, degan odam juda ko'p kitob o'qishi, o'qiganda ham tanlab, ma'naviy olamini boyitadigan asarlar o'qishi kerak. Ijod namunalari bir chetga tashlab, biroz vaqt o'tgach esa yana qayta ko'rib chiqish lozim. Maslahatim ma'qul keldi chog'i, Behruz hikoyalari indamaygina qaytarib oldi. Xursand bo'lganim esa otasi u o'qishi kerak bo'lgan kitoblar ro'yxatini yozib berishimni iltimos qilgani edi.

Oradan ancha vaqt o'tib, ota-bola yana tahririyatimizga kirib kelishdi. Gap orasida Sherzod aka ilk uchrashgan kunimizdayoq o'g'liga barcha kitoblarni olib bergani, yosh do'stimiz esa mutolaadan charchamayotganini, asosiysi ular xonadoniga badiiy adabiyotlar muntazam kirib kelayotganini zavq bilan gapirib berdi. Uylarida mo'jazgina kutubxona ham paydo bo'libdi. Bu yangilikdan quvondim.

Suhbatimiz chog'i Behruz qo'lidagi xatjildan bir varaq qog'ozni olib menga uzatdi. «Qo'zichoq». Uning hikoyasining nomi shunday edi. Hikoyani o'qiy boshladim. Ko'z oldimda peshonasida oppoq qashqasi bor, baxmalday qopqora qo'zichoq gavdalandi. Uning dikridikri harakatlari, beozor sho'xliklari juda chiroyli tasvirlangan, kishi zavqini uyg'otardi. «Zo'rl!». Beixtiyor bu so'zni aytib yuborganimni o'zim ham sezmay qoldim. Ro'paramda esa bir paytlar ko'zlari javdirab turgan bolakay emas, o'ziga bo'lgan ishonchi butun vujudida barq urib turgan ijodkor turardi. Kitobning yorqin shu'lasini yana bir xonadonni munavvar etayotganini ko'rish men uchun quvonarli edi.

Yusuf ABDULLAYEV

Farg'ona shahrida «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati viloyat Kengashi bilan «Kamolot» do'koni ochildi.

Gazetaning navbatdagi sonini tayyorlash harakatidamiz. Shu payt xonaga kirib kelgan, o'rta yoshlardagi kishi yonidagi bola bilan baravariga salom berib bir zum turib qolishdi. Keyin mening yonimdagi stulga iymanibgina o'tirishdi.



## QALB ZIYOSI

Yashnobod tumanidagi 255-umumta'lim maktabida «Kitobim – oftobim» deb nomlangan tadbir bo'lib o'tdi. Unda bolalarning sevimli yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyev va shoir Salim Hamroqulovlar ishtirok etishdi.

Bayramona ruhda o'tgan kechada maktab faollar zali ilm-u ma'rifatga chaqiruvchi shiorlar, turli badiiy kitoblardan namunalari, ular haqida ma'lumot beruvchi bukletlar bilan bezatilgan. Ushbu tadbirda maktabning 4- va 6-«B» sinf o'quvchilari Xudoyberdi To'xtaboyevning hayoti va ijodi hamda adibning asarlari qahramonlarini aks ettirgan sahna ko'rinishlari, o'zlarini qiziqtirgan savollari bilan foy ishtirok etdilar.

– Kitob qalbga nur beradi, u bilan inson olamni anglaydi. Zaminni oftob isitsa, inson qalbini kitob tafti ilitadi, nurlantiradi, – deydi tadbir tashkilotchisi, kutubxona mudirasi Zuhra opa Valixonova.

Adibning mazmunli suhbatini va yoshlik davridagi qiziqarli xotiralari ishtirokchilarda katta taassurot uyg'otdi.

## Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 198-umumta'lim maktabida OTALAR MAJLISI bo'lib o'tdi.

Ota-ona quyosh yanglig' hayotimizga nur sochib turuvchi aziz insonlardir. Bamisoli oy kabi yorug'lik taratib yo'llarimizni nurafshon etadilar.

Shu sabab, eng go'zal dostonlar, qo'shiqlar ana shu zotlarga bag'ishlangan. «Ota – oilaning tayanch ustuni» mavzusidagi tadbir o'zgacha tusda tashkil-lashtirildi. Kechaga o'quvchilarning otalari, mahalla faollari va ustozlar

taklif etildi.

## BOLALIKNING BEG'UBOR BOG'LARI

Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumanidagi 57-umumta'lim maktabida faxriy pedagog, bolalar adibasi, Respublikada xizmat ko'rsatgan xalq ta'limi xodimi Muhayyo To'laganova bilan ijodiy uchrashuv bo'lib o'tdi.

– Bolalik chog'larimda kitobga qiziqishim baland edi. Qo'limga tushgan badiiy asarni o'qib tugatmagunimcha ko'nglim joyiga tushmasdi. Bu qiziqishim natijasida o'zim ham maqolalar, bolalar hayotiga oid hikoyalarni mashq qila boshladim. Vaqti kelib o'zimning ham kitoblarim chop etildi. Hayotimni mazmunli o'tishida kitobning o'rni katta ekanligini ta'kidlashdan charchamayman, – deydi Muhayyo opa.

Bunday ibratli tadbirlarni o'tkazish ushbu bilim maskanida yaxshi an'anaga aylangan. Ayniqsa bu borada fidoyi pedagoglar Yulduzxon Nazarova, Shahnoza Mirzarahimovalarni alohida ta'kidlash lozim. Ijodkor bilan bo'lgan uchrashuv barcha o'quvchilarda katta taassurot qoldirdi.

Muzaffar AHMEDOV



Mening otam hammadan yaxshi

Ta'lim maskanining 5-«A» sinf o'quvchilari yod olgan she'rilar, ijro etgan raqslar, sahna ko'rinishlari barchaga manzur bo'ldi. Farzandini dunyoga keltirib, oq yuvib, oq taragan onalarni nazardan chetda qoldirmagan holda, tadbirda ota maqomining ustunligi, shu bilan birga maqomining e'tirof qilindi.

– Bu kabi tadbirlarni uyushtirish biz ustozlarga zavq bag'ishlaydi, – deydi ushbu ta'lim muassasasining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Dilfuza opa To'xtaxojayeva.

Tadbirda «Mening otam hammadan yaxshi» insholar ko'rik-tanlovi g'oliblariga, hamda ota va bolalar bilan o'tkazilgan tanlovda g'olib bo'lgan otalarga sovg'alar ulashildi.

Jamoliddin ABDULLAYEV



Lesson 81

OUR GREAT GRANDDAD

9th April the birthday of the great military leader and statesman Amir Temur.




Amir Temur you are our great granddad, You are proud of our nation, our land. With your much advice, with your rules, We always try being suitable for you.

CAN YOU COUNT THE NOUNS?

(Otlarni sanay olasizmi?)

A noun can be countable or uncountable. You can use one/two/three ... with countable nouns (you can count them):



Singular: a car, my car, the car, etc.

Plural: cars, two cars, the cars, some cars etc.

- I've got a car.

- There aren't many cars in the car-park.

Don't use the singular (house, car etc.) alone. You need a/an:

For example: I haven't got a car.

Uncountable nouns:

water rain air rice salt oil plastic money music tennis

You can't say one/two/three... these things.

Uncountable nouns have only one form:

money the money my money some money much money

For example: I've got some money.

Don't use a/an + uncountable nouns: ~~a~~ money ~~a~~ music

But you can say a piece of .../ a bottle of ... etc + uncountable nouns:

a piece of cheese a piece of music a glass of water  
a bowl of rice a cup of coffee a bottle of milk  
a game of tennis a can of oil a bar of chocolate

Exercise 1. Some of these sentences need a/an some of the sentences are right. Put in a/an where necessary.



- I haven't got car. **a car**
- Salt isn't expensive. **okay**
- Ann never wears hat. ...
- Are you looking for job? ...
- Mary doesn't eat meat. ...
- I'm going to party tonight. ...
- Do you like cheese? ...
- Do you want cup of coffee? ...
- I never drink milk. ...
- Britain is island. ...
- Javohir made very bad mistake. ...
- Everybody needs food. ...
- Can you drive car? ...
- I've got very good idea. ...

Prepared by Dinora SHAKIROVA

DESCRIBE

(Ta'riflang)

Compare these two conditions and describe each one:



Zulfiya NURXO'JAYEVA

CONTINUE THE PROVERBS

(Maqollarni davom ettiring)



- The Earth turns green with rain, - labour is wealth.
- Tree is delightful with leaf, your labour is your wealth.
- Who works-bites pilaf, person with labour.
- The Earth is mother, water is father, enjoyment.
- Labour, labour's bottom - who doesn't work-bites stone.
- Your attempt is your health, - peoples with labor.
- It won't be enjoyment without labor, the basis of enjoyment.
- Labour - if you respect, your soul as a garden.
- The life without labour - pilaf without salt.
- If you work, your breast as a mountain, without morally good deed.

Sarvinoz NAZAROVA, the 1st course pupil of lyceum by Uzbek State World languages university

WE LEARN ADJECTIVES...



Complete the sentences using the adjectives.

Lazy, generous, learned, creative

- He always buys various presents for his friends. He is ...
- She reads a lot of books so she is ...
- They always seek out new ideas. They are ...
- She doesn't like helping her mother with housework. She is ...

Zilola JAMOLOVA, Jizzakh region

AT THE SUPERMARKET

I went to supermarket, With my mother together. We bought potato, salt, Then butter, bread and milk.

I wanted ice-cream, chocolate, But my mother said "Wait". We took eggs, tomato, cheese, After then tea, apple juice.

So we bought everything, Fruits, sweets and a cake. With my kind mother, We took all foods together.





Dono AHMEDOVA

SUNNY LAND

(Quyoshli o'lka)

Find the words according to the actions and put letters which are suitable.



Nozima YO'LDOSHEVA Painter: YOQUBBEK



Mamlakatimizda kasb-hunar egallashni niyat qilgan o'g'il-qizlarimiz uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. «Barkamol avlod» bolalar ijodiyot markazlari faoliyatining yo'lga qo'yilishi, ana shu g'amxo'rlikning bir namunasidir.

## UCHKO'PRIKNING BARKAMOL AVLODLARI

Tuman «Barkamol avlod» bolalar ijodiyot markazi qoshidagi «Yosh jurnalist va notiq» to'garagi a'zolari ham ko'plab muvaffaqiyatlarga erishib kelmoqda. Jumladan, «Kamalak» yulduzlari festivalining viloyat bosqichida o'quvchilarimiz 2013-yildan buyon faxrli 1-o'rinni egallab kelayotir. Qolaversa, Respublika Yozuvchilar uyushmasi tomonidan uyushtirilgan «Iste'dod», «Yurt kelajagi» kabi ko'rik-tanlovlarda to'garagimiz a'zolaridan Maftuna Akbarova, Sarvinoz Musaxo'jayeva badiiy publitsistika, she'riyat yo'nalishlarida yaxshi natijalarni qo'lga kiritdi. Eng quvonarlisi, 14 nafar yosh iqtidor egalarning she'riy to'plamlari nashr qilindi.

To'garagimiz a'zolarining ijod namunalarini sevimli gazetamizga yuboryapmiz. Shu o'rinda «Tong yulduzi»ning har bir sonini qiziqib o'qib borishimiz, unda berilayotgan she'rlar va hikoyalarni o'quvchi-shogirdlarimizga manzur bo'layotganini alohida ta'kidlab o'tishni istardim.

Zarifaxon MAHKAMOVA,  
Farg'ona viloyati, Uchko'priq tumanidagi «Barkamol avlod» bolalar ijodiyot markazi qoshidagi «Yosh jurnalist va notiq» to'garagi rahbari

## VATANIMNI KUYLAYMAN

Har kuni bazm, bayram,  
O'lkam juda ham ko'rkam.  
Yurtboshimiz bizlarga –  
Yaratdilar zo'r imkon.

Maktab, kollej, litseylar,  
Qo'ynida bilim jo'shar.  
Ular shahar, qishloqlar,  
Husniga husn qo'shar.

Kunda maktabga borib,  
Shodon o'qib qaytamiz.  
Vatanimiz nomini,  
Qo'shiq qilib aytamiz.

Mushtariy ASHURALIYEVA,  
2-IDUMning 7-sinf o'quvchisi

## BOBOMIZ BOBUR

Butun olam hayratda qolgan,  
Adabiyot chirog'i Bobur.  
Shoir va shoh, olim, tarjimon,  
Tarix ichra porloq gavhar, dur.

Andijonda tug'ilib o'sib,  
G'azallardan inju terganlar.  
Iste'dodi birla lol etib,  
Bizga qancha shodlik berganlar.

Qalbimizda yashaydi mangu,  
Hech so'nmagay ijod san'ati.  
Men ijodning yo'lin tanladim,  
Shoh Boburning bo'lib qanoti.

Gulhayo HUSANOVA,  
1-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

## QUYOSH SIZGA O'XSHAYDI, ONA

Mehringizdan yaraladi dunyolar,  
Allangizdan yashnab ketar saharlar.  
Quvonsangiz to'lqinlar daryolar,  
Quyosh sizga o'xshab ketar, Onajon.

So'zingiz har qanday dilga yoqadi,  
Bahor sochingizga gullar taqadi.  
Hamma havas birla Sizga boqadi,  
Quyosh sizga o'xshab ketar, Onajon.

Xadicha QO'CHQOROVA,  
14-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi

## NIMA CHARXLAR AQLNI


Shudgor qilish maqsadda,  
Qotib yotgan maydonni.  
Dehqon buva egovlar,  
Beti uchgan ketmonni.

G'allakor deb o'zicha:  
«Bug'doyzorda ish talay».  
O'tmas bo'lgan o'rog'in,  
Qayroq toshga ishqalar.

Charx-chi sochib atrofga,  
Qora temir zarrasin.  
Terlab-pishib o'tkirlar,  
Duradgorning arrasin.

Shunday ekan o'quvchim,  
Nima charxlarni aqlni?  
Uni bilgan topadi,  
Ko'p maqol va naqlni.

Zehning bo'lsa savolim,  
Javobin top shu topda.  
Qani ayt-chi, nima u,  
Bilmaysanmi?  
Kitob-da!



## YOSHLIK QADRI

Yoshlik – gul fasli,  
Yoshlik – beg'ubor.  
Beriladi u,  
Hayotda bir bor.

Yoshlik – bebaho  
Qimmat oltindan.  
Esl yosh buni,  
Anglar oldindan.

G'animat bilib,  
Har soat, kunni.  
Bekor o'tkazmas,  
Hattoki tunni.

Ochib bilimlar,  
Bulog'i ko'zin.  
Yaxshi hunarga,  
Uradi o'zin.

Yoshlik qadriga  
Yosh yetsa har vaqt.  
Kelajagida  
Uni quchar baxt.

Erkin QAMBAR,  
Namangan viloyati

## OYMOMA

Tunning qirolichasi,  
Osmonning parvonasi.  
U kim bo'ldi, desangiz,  
Yulduzlarning onasi.

Har tun uni ko'raman,  
Salom berib qo'yaman.  
Yaxshimisiz, Oymoma,  
Osmonimga marhabo.

Oymomajon, oymomam,  
Yashnadi dasht-u dalam.  
Sizni chorlab turaman,  
Niyatlarim bir olam.

Mushtariy RO'ZIYEVA,  
Samarqand viloyati, Qo'shrabot  
tumanidagi 26-umumta'lim  
maktabining 7-sinf o'quvchisi



## BAHOR

Qaldirg'och uchib keldi,  
Gullarni quchib keldi.  
Dala, bog'lar yashnadi,  
Bahor fasli boshlandi.

Navroz bayrami keldi,  
Ko'kka uchirdik varrak.  
Gullarning ochilishi,  
Bahordan berar darak.

Nasiba RASHIDJONOVA,  
poytaxtimizning Chilonzor  
tumanidagi 200-umumta'lim  
maktabining 4-«G» sinf o'quvchisi

Malika o'zi tengqur  
bolalar bilan ko'-  
chada «Oq  
terakmi, ko'k  
terak»

o'ynayotgandi. Uning do'stlari:  
– Oq terakmi, ko'k terak,  
bizdan sizga kim kerak? – deb  
so'rashdi.

– Malika kerak, deb  
chuvillasdi raqib jamoa bolalari.  
U to'g'ridagi bir-birining  
qo'llarini  
ushlagan  
bolakaylar  
tomonga  
yugurish  
o'rni boshqa  
tomonga chopib ketdi.

– Ur-r-e, dadajonim kelyaptilar!  
– degan ovozi eshitildi.

Men sizni judayam sog'indim... Malika  
engashgan dadasining bo'ynidan  
quchdi.

– Asal qizimga kitob, – deya qo'lidagini  
qizalog'iga berdi.

Malika dadasini bilan yetaklashib uylari  
tomon ketdi.

– Darslaringni qildingmi, oppog'im?  
– Ha, hammasini bajardim, bugun  
ikkita «5» baho oldim. Ustozimiz Saodat  
opa kimda kim darslarni o'z vaqtida  
tayyorlab, a'lo baholarga o'qisa, u  
kelajakda kamil inson bo'ladi, dedilar.

## ORASTA QIZALOG



Ertasi kuni kechga  
tomon momoqaldi-  
roq gumburlab,  
sharros yomg'ir  
quydi. Bu orada  
u dadasini sovg'a qilgan kitobini  
mazza qilib o'qidi.

Malika dadasining  
ishdan qaytishini kuta-  
kuta oxiri uxlab qoldi.  
U tong otishi  
bilan ham-  
madan oldin  
turdi. Dadasini  
kecha ishdan  
kech qaytga-  
nini poygaktagi  
tufflisidan bildi.

Malika tufflini asta hovliga olib chiqib,  
tozalab yuvib, joyiga qo'ydi.

Nonushtadan so'ng dadasini ishga  
otlanar ekan, moylab qo'yilgan tufflisini  
kiyayotib, Malikaning onasiga yuzlandi:

– Tufflimni yanada yaxshilab tozalabsiz,  
onasi.

– Yo'q, dadajonim, qizingiz Malika yuvib  
qo'ydi, – dedi Gulnora opa kulimsirab.

– Qizimiz aqlli, odobli.

Bu gapni eshitib turgan Malika:  
– Dadajonim, siz olib kelgan kitobda orastalik  
haqida yozilgan ekan, – dedi.

Ona quvonib ketib, qizingizni yelkasidan  
mehr bilan quchdi...

Shavkat KAZAKBAYEV





# Andijon viloyati, Izboskan tumanidagi Chuvama qishlog'iga yo'lingiz tushib, tadbirkor Iqboljon Yunusov haqida so'rasangiz, qishloq ahli bu insonni og'zidan bol tomib maqtaydi. Uzoq yillar murabbiylik sohasida mehnat qilgan Iqboljon aka, bugun tumanning eng ilg'or tadbirkorlaridan.

## CHUVAMADA katta futbol BAYRAMI

Andijon viloyati, Izboskan tumanidagi Chuvama qishlog'iga yo'lingiz tushib, tadbirkor Iqboljon Yunusov haqida so'rasangiz, qishloq ahli bu insonni og'zidan bol tomib maqtaydi. Uzoq yillar murabbiylik sohasida mehnat qilgan Iqboljon aka, bugun tumanning eng ilg'or tadbirkorlaridan.



Sportga mehri bo'lakcha bo'lgani uchun, qahramonimiz o'zi tug'ilib o'sgan qishloqda tez-tez futbol musobaqalari tashkil etib turadi. Quvonarlisi, yaqinda bo'lib o'tgan navbatdagi turnir ham uzoq-yaqindan kelgan yosh charm to'p ustalari orasidan ko'plab iste'dod egalari kashf etdi.

Qishloqdagi 29-umumta'lim maktabi stadionida o'tkazilgan bahslar futbol muxlislariga bir olam quvonch ulashdi. Ayniqsa, «Yuqori Chuvama» hamda Oltinko'l tumanidan kelgan «Ko'makay» jamoalari o'zlarining ajoyib o'yinlari bilan turnirga jiddiy tayyorgarlik ko'rganini amalda isbotladilar. E'tiborlisi, bu jamoalar barcha raqiblarini ishonchli tarzda mag'lub etib, final bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritishdi.

Hal qiluvchi bahs oldidan o'yingohga minglab muxlislar yig'ildi. Ular o'yinchilarning har bir harakatlarini olqishlab, o'z jamoalarini g'alaba sari ruhlantirdilar. Tengkurashlar ostida o'tgan uchrashuvda oltinko'llik futbolchilar 5:4 hisobida g'alaba qozonib, bosh sovrinni qo'lga kiritishdi. O'yin yakunlangach, g'oliblarga musobaqa tashkilotchilarining qimmatbaho sovg'alari topshirildi.

Bugungi kunda aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, sportni yanada ommalashtirish maqsadida sport musobaqalarini o'tkazish an'anaga aylangan. «Sog'lom ona va bola yili» Davlat dasturi doirasida Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi tomonidan tashkil etilgan

## «Sog'lom oila» SPORT MUSOBAQASI yangi oilaviy sportchilarni kashf etdi.

Mazkur musobaqaning Toshkent viloyati bosqichida 40 ta eng kuchli oilaviy jamoalar bahslashdi.

Ular yugurish, sakrash, estafeta, akrobatika, arqon tortish, to'pni nishonga otish shartlari bo'yicha bellashdilar. O'g'il farzandli oilalar o'rtasidagi bahslarda bekobodlik Sadiyevlar oilasi g'oliblikni qo'lga kiritgan bo'lsa, Parkent tumanidan Nurmatovlar oilasi qizil oilalar o'rtasida birinchilardan bo'lishdi.

Shukrulla G'ULOMOV



## Bokschilarimiz Litvada tengsiz

Bokschilari-mizning qit'a va jahon chempionatlari, turli nufuzli xalqaro musobaqalarda qo'lga kiritayotgan olamshumul g'alabalari o'zbek sporti dovrug'ini butun dunyoga yoymoqda.

Kuni kecha Litva poytaxti Vilnyus shahrida bo'lib o'tgan turnirda yosh charm qo'lqop ustalarimiz erishgan muvaffaqiyat, bokschilarimizning qanday kuchga ega ekanini yana bir bor ko'rsatib berdi.

Musobaqada Ozarbayjon, O'zbekiston, Qozog'iston, Rossiya, Fransiya, Vengriya, Gollandiya kabi 17 ta davlatdan kelgan bokschilar g'oliblik uchun bahs olib bordi.

Iqtidorli yosh charm qo'lqop ustalarimiz Abu Nuranov (-64 kg) va Profsor Rorimsha (-91 kg)lar turnirning yarim finaliga qadar yetib borib, yakunda bronza medali bilan taqdirlandi. Shuningdek, Shunqor Abdurasulov (-56 kg), Sanjar Tursunov (-81 kg) va Abdulla Xudorganov (+91 kg) raqiblariga hech qanday imkoniyat qoldirmay, shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy oldi.

Shunday qilib, 3 ta oltin va 2 ta bronza medali bilan o'zbekistonlik bokschilar umumjamoa hisobida birinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

Sa'dullo TURSINOV

## Sarvinozdan minnatdorman

«Sog'lom avlodni tarbiyalash buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asosini qurish deganidir».

Prezidentimizning bu so'zlarini mushohada qilarkanman, barcha joylarda bo'lgani kabi bizning maktabimizda ham yosh avlod kamoloti yo'lida amalga oshirilayotgan ibratli ishlardan qalbim faxr-u iftixorga to'ladi.

Ayniqsa, qizlar o'rtasida sportni ommalashtirish, ular orasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish borasida qilinayotgan ishlar tahsinga loyiq.

Ana shunday sharoitlardan unumli foydalanib, o'z orzulari sari dadil odimlayotgan iqtidorli shogirdlarimdan biri Sarvinoz Rustamova bo'ladi. U mana bir necha yildirki, sportning karate turi bilan muntazam shug'ullanib kelmoqda. E'tiborlisi, u bugunga qadar viloyat va respublika miqyosida bo'lib o'tgan turli musobaqalarda munosib ishtirok etib, yaqinlari va murabbiylari ishonchini oqlamoqda. Maktabimizdagi barcha qizlar ham Sarvinozga havas bilan qarashadi, unga o'xshashga intiladi. Men ana shunday bilimli va iqtidorli o'quvchim borligidan faxrlanaman.

Xorazm viloyati, Xonqa tumani-dagi 37-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Xurshida IBRAGIMOVA, Xorazm viloyati, Xonqa tumani-dagi 37-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi



Yaqinda maktabimizda «MENING ONAM – SPORTCHI» nomli musobaqa bo'lib o'tdi. Bellashuvda ushbu ta'lim maskanida o'quvchilarga saboq berayotgan 5 nafar ayol o'qituvchi o'z farzandlari bilan ishtirok Qatnashchilar estafetali va to'siqlar aro yugurish, darvozaga to'p kiritish, arg'amchida sakrash, stol tennisi kabi 5 ta shart bo'yicha o'zaro kuch sinashdilar. Yakunda ona tili va adabiyot fani o'qituvchilari Munira Namozova o'z oilasi bilan 1-, Shohida Narziyeva 2-, boshlang'ich sinf o'qituvchisi Munira Berdiyeva esa 3-o'rinni qo'lga kiritdi. G'oliblar maktab ma'muriyati tomonidan faxriy yorliq va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Farhod UBAYDULLAYEV, Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi 3-umumta'lim maktabining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari




# Samarqandga sayohat

Mana, ta'til kunlari ham tugab, 4-chorak boshlandi. Ta'tilni hammangiz mazmunli o'tkazgansiz, albatta. Ayniqsa, poytaxtimizning 21-, 22-, 23-Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari uchun ta'til kunlari yanada quvonchli bo'ldi, desak, adashmaymiz.

Boisi, «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya Fondi, «O'zbekiston temir yo'llari» AJ hamda qator tashkilotlar hamkorligida bolalarga ajoyib tuhfa tortiq qilindi. Ular yurtimizning ko'hna shahri – Samarqandga bir kunlik sayohat uyushtirishdi. Sayohat davomida bolajonlar Registon maydoni, Samarqand tarixi muzeyi, Go'ri Amir maqbaralari bilan tanishish barobarida buyuk bobolarimizdan qolgan boy tarixiy merosning guvohi bo'ldilar. Bolajonlarning ilk sayohatlari bir umr eslarida qolishi, bu haqda ular hali ko'p va xo'p gapirib yurishlari, shubhasiz.



Ozoda **TURSUNBOYEVA**



## Eng, eng, eng... Bu qiziq!

\*Dunyodagi eng katta kitob Amsterdam muzeylaridan birida saqlanadi. Bu kitob «Dengiz qoidalari to'plami» deb nomlanadi. Uning eni 1 metr, qalinligi yarim metr, uzunasiga esa o'rta bo'yli kishidan ham balanddir;

\*Eng og'ir kitob Londonning Britaniya muzeyida saqlanadigan geografik atlas hisoblanadi. Uning bo'yi 1 metrdan ortiq va og'irligi 320 kilogrammdir;

\*Eng katta kitoblardan ro'yxatidan yana biri – «Magnificent Maps: Power, Propaganda and Art» ham o'rin olgan. 37 ta xaritaning o'zida jamlagan bu nodir mo'jizaning balandligi 1.75 m, eni esa 1.9 m ni tashkil etadi. U 1660-yili Britaniya qiroli Karl II ga sovg'a qilish uchun savdogar Yoxannesom Klenke tomonidan maxsus chop ettirilgan.

Internet materiallari asosida  
**Xosiyat HASANOVA tayyorladi**



- Suv inson hayotida juda muhim o'rin tutadi, – dedi o'qituvchi.
- Qani, kim bunga misol keltiradi?
- Men, – dedi Akbar qo'lini baland ko'tarib.
- Agar suv bo'maganida, biz suzishni bilmagan bo'lardik...

O'qituvchi:  
– Shuni unutmangki, bolalar, hayot uchun eng zarur bo'lgan kislorod 1773-yilda kashf qilingan.  
O'quvchi:  
– Aytinch, ustoz, ungacha odamlar nima bilan nafas olishgan?..



- Yoshing nechada, bolajon?
- Besh yoshdaman.
- Bo'lishi mumkin emas, axir bo'ying soyabon bilan teppa-teng-ku...
- Soyaboningiz necha yoshda?

Internet materiallari asosida  
**Shoh MUHAMMAD tayyorladi**



8



### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir  
**Feruz ADILOVA**

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

4-aprel 2016

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Omonulla YUNUSOV, Dilshod KENJAYEV, Bahodir G'ANIYEV, Svetlana INOMOVA, Murtazo SULTONOV, Zoir ISAJONOV, Vahobjon RAJAPOV, Zikrilla TESHABOYEV, Feruz JALILOVA, Feruz MATYOQUBOV (mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir  
Shavkat KAZAKBAYEV  
Rassom  
Feruzbek KAMOL o'g'li  
Sahifalovchi-dizayner  
Shaxobiddin MAXMADIYEV

Manziliimiz:  
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
[info@tongyulduzi.uz](mailto:info@tongyulduzi.uz)  
[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)

Tel/faks: 244-63-08  
Tel/faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. ISSN 2010-6092 Adadi – 50 088 Buyurtma – S 5577

7-aprel – Butunjahon salomatlik kuni

## SALOMAT BO'LING, AZIZ TENGDOSHIM!



Bilasizmi, aziz tengdoshlar, 7-aprel sanasida butun dunyo bo'ylab Salomatlik kuni nishonlanadi. Yurtimizda biz yoshlarning har tomonlama barkamol, sog'lom avlod bo'lib voyaga yetishimiz yo'lida juda ko'p ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, yillarga nom berilishida sog'lom avlodga alohida

### KITOB O'QIGAN BOLA

Nur taralar ko'zidan,  
Bilinadi so'zidan,  
Kitob o'qigan bola.

Unda mujassam odob,  
Yuzi misoli oftob,  
Kitob o'qigan bola.

Suhbati to'la ma'no,  
O'qishlari ham a'lo,  
Kitob o'qigan bola.

Hurmat qilar kattani,  
Bajaradi va'dani,  
Kitob o'qigan bola.

E'zoza **MUHAMMEDOVA**, poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 193-umumta'lim maktabining 8-«D» sinf o'quvchisi

urg'u berilishi e'tiborga molik. Ushbu yilning «Sog'lom ona va bola yili» deb nomlanishi ham o'tgan «Ona va bola yili», «Oila yili», «Sihat-salomatlik» yillari bilan uzviy bog'liqdir.

Yoshlar o'rtasida «Toza qo'llar», «Sog' tanda – sog'lom aql» aksiyalari tashkil etilishi, «Umid nihollari», «Barkamol avlod» singari sport musobaqalarining o'tkazilishi ham bizning salomatligimiz yo'lidagi sa'y-harakatlarining bir bo'laki hisoblanadi. U, avvalo, har birimizning oddiy gigiyenik qoidalarga rioya qilishimizdan boshlanadi. Ana shu biz uchun oddiydek tuyuladigan salomatlik qoidalarga amal qilsak, nur ustiga a'lo nur bo'ladi.

Odina **SAHOBIDDIN qizi**, Yunusobod tumanidagi 96-umumta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi

### BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!

## TEMURIYLAR MASH'ALASI



Chizma aylanalaridan bosh harfni topib, chiziqlar bo'yicha o'qish bilan topshiriqni bajaring. Shunda ulardan jahonga mashhur nodir asar va uni yozib qoldirgan yirik davlat arbobini bilib olasiz.

Foziljon **ORIPOV**